



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

MAHMUD KOSHG'ARIY KELTIRGAN UYG'UR ALIFBOSI: HARF VA TOVUSH MUNOSABATLARI

Qosimjon Sodiqov

Filologiya fanlari doktori, professor,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: uyg'ur yozuvi, turkcha yozuv, alifbo, uyg'ur alifbosi, harf, tovush, transliteratsiya, harf va tovush munosabatlari

Annotatsiya: Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'oti-t-turk" asarida eski uyg'ur yozuvi haqida ma'lumot berib, uning alifbosini ham keltirgan. Olimning turkcha yozuv haqida yozganlari, u keltirgan alifbo tizimi turkiy tillar va yozuv madaniyati tarixi uchun, xususan, qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining fonetik tizimi, harf va tovush munosabatlarini o'rganishda o'ta ahamiyatlidir. Koshg'ariy unga Qoraxoniylar davri tilining bilimdoni, kuchli fonetisti sifatida yondashgan.

O'tmishdan qolgan bundan boshqa uyg'ur alifbolari ham bor. Lekin ularning hech biri o'z aniqligi va to'liqligiga ko'ra Koshg'ariy alifbosiga hamda u keltirgan izohlarga tenglasha olmaydi.

MAHMOUD KOSHGARI'S UYGHUR ALPHABET: LETTER AND SOUND RELATIONSHIPS

Kasimjon Sadikov

Doctor of Philology, Professor,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uyghur script, Turkish script, alphabet, Uyghur alphabet, letter, sound, transliteration, letter and sound relations.

Abstract: Mahmud Kashgari, in his "Devonu lugati-t-turk", gave information about the old Uyghur script and its alphabet. What the scholar has written about Turkish writing, the alphabet system he cites is very important for the history of Turkic languages and writing culture, especially in the study of the phonetic system, letter and sound relations of the written literary language of the Karakhanid period. Kashgari approached him as a knowledgeable, strong phonetist of the Karakhanid period language.

There are other Uyghur alphabets left over from the past. But none of them can be compared to the Kashgari alphabet and its explanations in its accuracy and completeness.

УЙГУРСКИЙ АЛФАВИТ МАХМУДА КОШГАРИ: БУКВЕННО-ЗВУКОВЫЕ СВЯЗИ

Касимжон Садиков

доктор филологических наук, профессор,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Уйгурское письмо, турецкое письмо, алфавит, уйгурский алфавит, буква, звук, транслитерация, буквенно-звуковые отношения

Аннотация: Махмуд Кошгари в своем труде «Девону луг'оти-т-тюрк» дал сведения о древней уйгурской письменности и привел ее алфавит. Сочинения ученого о турецкой письменности, представленной им системе алфавита имеют большое значение для истории тюркских языков и письменной культуры, в частности, для изучения фонетической системы письменного литературного языка караханидского периода, взаимоотношений между буквы и звуки. Кошгари подошел к нему как знаток языка Караханидов, сильный фонетист.

От прошлого остались и другие уйгурские алфавиты. Но ни один из них не может сравниться по точности и полноте с алфавитом Кошгари и предоставляемыми им объяснениями.

KIRISH

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'oti-t-turk" asarida eski uyg'ur yozuvi haqida ma'lumot berib, uning alifbosini ham keltirgan. Olimning turkcha yozuv haqida yozganlari, u keltirgan alifbo tizimi turkiy tillar va yozuv madaniyati tarixi uchun o'ta qadrlidir. O'tmishdan qolgan bundan boshqa uyg'ur alifbolari ham bor. Lekin ularning hech biri o'z aniqligi va to'liqligiga ko'ra Koshg'ariy alifbosiga hamda u keltirgan izohlarga tenglasha olmaydi.

Koshg'ariy o'z lug'atida turkiy so'zlarni hamda ularning ma'nosini izohlash uchun keltirilgan misollarni arab xatida bergan. Lekin, o'sha zamonda turklar qo'llagan alifbo to'g'risida ma'lumot berar ekan, boshqa bir yozuv – hozir fanda "uyg'ur yozuvi", "uyg'ur xati" deb atalayotgan yozuvni keltiradi; Mahmud Koshg'ariy uni "turklar yozuvi" (*kitābatu-t-turkiyya* hamda *xaṭṭu-t-turkiyya*) degan.

Uyg'ur yozuvini Alisher Navoiy ham o'shanday atagan edi. U Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktubida xatlarni o'qish uchun qulay yo qiyinligi to'g'risida fikr yurita turib, uyg'ur xatini ham eslaydi; uni *türkçä xaṭ* deya tilga oladi. Navoiy yozadi: *Yana ul-kim, har türliüg 'arḍadāšt-kim, yuqari bitilsä, nasxta'liq xaṭṭi bilä andaḡ xvānā bitilsä-kim, oqurda oqur kišigä tašvīš tegmäsä, türkçä xaṭ (تركجه حط) bilä xūd ašlā bitilmäsä-ki, bu bābda dayi qavle bar* (Mun. 398a, 23–25).

Ushbu turkiy yozuv forscha manbalarda *xaṭṭ-i uyyūri*, arabcha manbalarda arabiy izofa bilan *xaṭṭu-l-uyyūriyya* deb ham atalgan. Masalan, Ibn Arabshoh uni ana shunday atagan (Qohira milliy kutubxonasida saqlanayotgan 3543- ko'rsatkichli qo'lyozma, 186a–187a- betlar).

Ba'zi asarlarda ushbu yozuv "mo'g'ul xati" (*xaṭṭu-l-mo'ūliyya*) deb ham aytilgan (*qarang: Sodiqov 2020, 257–258*).

TADQIQOTNING USULLARI

Mahmud Koshg'ariy alifbosining tizimi

Mahmud Koshg'ariyning ta'kidlashicha, uyg'ur alifbosida harflar soni o'n sakkizta. Muallif alifboda harflarning bosh shaklini ko'rsatib, tagida arab harflari bilan ularning o'qilishini (transliteratsiyasini) bergan. Uyg'ur harflarining vazifasi tagidagi ana shu izohlarga qarab tushuniladi.

U yozadi: «Turkiy tillarda qo'llanadigan asosiy harflar soni o'n sakkizta. Turkcha yozuv (كتابة التركيه)da shular qo'llanadi. Ularning hammasini quyidagi so'zlar qamraydi: اخوك، لف، سمج، نرق، بذر، شنيا

Ayirib ko'rsatilsa, quyidagicha bo'ladi:

ا	ب	پ	ق	ك	و	خ	د	ذ
د	ك	ى	ق	ز	و	خ	ف	ا
پ	ه	پ	خ	ك	ف	پ	ه	د
ل	ت	ش	ر	ج	ب	س	ن	م

Arabchada bu harflarning tengdosh sirasi ا ب ت ث singaridir (MK.3b).


Alifbo tarkibidagi harflarning ko'pvazifalilik xususiyati haqida Mahmud Koshg'ariy alohida to'xtalgan edi. Uning ta'kidlashicha, turkiy tildagi yettita tovush uyg'ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas. Lekin ular ham yozuvda boshqa harflar bilan ifodalanaveradi; faqat ularga qo'shimcha belgilar qo'yib boriladi. Bu to'g'rida u yozadi: «Bu asosiy harflardan boshqa talaffuzdagina (yozuvda emas) ifodalanuvchi yana yettita harf [ya'ni, tovush] borki, turkiy so'zlar bu harflarsiz ishlatilmaydi. Bular jarangsiz *rā* (ya'ni, [p]) harfi, arabcha *jīm* harfi – arabcha *jīm* (bu lug'atda, ya'ni turkchada) kam qo'llanadi, *zā* bilan *šm* oralig'ida talaffuz etiladigan *zā* harfi (ya'ni, [ž]); arabcha *fā* (ya'ni, [w]) harfi; nuqtali *ḡayn* harfi; *qāf* bilan *kāf* harflari oralig'ida talaffuz etiladigan jarangli *kāf* (ya'ni, [g]), *kāfu-l-ḡaynna* bilan *ḡayn* oralig'ida hamda *qāf* bilan *nūn* oralig'ida talaffuz etiladigan نك (ya'ni, [ŋ]) harflaridir.

Bu harflarni talaffuz qilishda turklardan boshqalar qiynaladilar. Bu harflar o'sha yuqoridagi harflardek yoziladi, tepasiga nuqta qo'yilib, bir-biridan farqlanadi» (MK.3b–4a).

Koshg'ariyning ushbu ma'lumotiga ko'ra uyg'ur yozuvida quyidagi tovushlar bir xil harflar orqali ifoda etilganligi ayon bo'ladi: [k]–[g], [x]–[ɣ], [č]–[j]–[ž], [w]–[f]. Sonor [ŋ] esa yozuvda ikki harf (نك) bilan berilgan.

Koshg'ariy uyg'ur alifbosidagi harflarning otini ham keltirgan: harflarning oti, ular ifodalagan tovushga *fathā* qo'shib hosil qilingan: *a*, *wa*, *xa*, *va*, *za*, *qa*, *ya*, *kā*, *ḡa*, *ma*, *na*, *sa*, *ba*, *ča*, *ra*, *ša*, *ta*, *la*. Bu ketma-ketlikni esda saqlash uchun ular uchta-uchtadan birlashtirilib, *awaxa*, *vazaqa*, *yakāda*, *manasa*, *bačara*, *šatala* tarzida o'qilgan.

Mana ularning uyg'ur xatida berilishi:



Muallifning yozishiga ko'ra, «Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, كاشغەر *Kāšyar* dan Yuqori Chingacha (الصين العليا) – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» (MK.4b).

Mahmud Koshg'ariy uyg'ur yozuvida unilarning ishlatilish prinsiplari to'g'risida ham so'z yuritgan. Jumladan, u *kelin* so'zining ma'nosi va yozilishiga to'xtala turib, yozuvning bu xususiyati to'g'risida shunday yozgan edi:

كَلِينُ *kelin* – “kelin”. O'rta harfi *fathali* bu xil so'zlar aslida *alif* bilan qo'shib yozilishi kerak edi. “Tuya tovoni” ma'nosida kelgan تَابُنُ *tapan* kabi so'zlarda ham ikki *alif* (ya'ni, [a]) yozilishi

kerak edi. Bu holda soʻz oʻzagida arabcha yozuvda boʻlmagan ikki *alif* (yaʼni, [a]) orttirilgan boʻladi: **صوم** تَابَانُ; shuningdek, **صوم** تُبُونُ kabi oʻrtasi *zammali* soʻzlarda ikki *vāv* (yaʼni, [u]) shakli orttirib yozilishi qoidadir: **صوم** تُبُونُ kabi. Shuningdek, **صوم** كَلْنُ *kelin* soʻzida bir *yā* [i] orttirib yoziladi: **صوم** كَالِينُ kabi. Biz koʻrsatmagan boshqa soʻzlarda ham shunday holat. Bu soʻzlarda orttirib, qisqartirib qoʻllash mumkin. ...Choʻzib va qisqartib talaffuz qilish soʻzga zarar bermaydi. Lekin orttirib yozish mumkin boʻlganiday, qisqartirish ham yanglish emasdir. Balki qisqartirish muvofiq (MK. 102b).

Oʻrta asrlardan qolgan boshqa alifbolar

Oʻtmishdan kunimizgacha Mahmud Koshgʻariy alifbosidan boshqa uygʻur alifbolari ham yetib kelgan. Ular ham turli ilmiy-grammatik asarlar, tarix kitoblari, majmualar tarkibidadir.

R.R. Arat ana shunday alifbolardan biri haqida maʼlumot keltirgan. Uning yozishicha, Anqaradagi Maorif kutubxonasida (hozir uni Anqara Milliy kutubxonasi deb ataladi) saqlanayotgan kitoblarning birida uygʻur yozuvli bir nechta turkiy toʻrtlik va baytlar bilan birga uygʻur alifbosi ham berilgan. Olim kitobdan oʻrin olgan ushbu sheʼriy uzindilar va uygʻur alifbosi haqida yozib, oʻsha betlarining fotosuratini ham keltirgan (*qarang*: Arat 1992, 34–36; CLXIX).

R.R. Arat bu qoʻlyozma kitob va unda keltirilgan uygʻur yozuvli turkiy uzindi sheʼrlar haqida «Qutadgʻu bilig» ilmiy nashrining kirish qismida ham F. Koʻprulu xabariga ishora qilib, qisqacha toʻxtalib oʻtgan (*qarang*: Arat 1991, XXXIX–XL).

Saidbek Boltaboyevning soʻziga qaraganda (u kutubxonada oʻtirib qoʻlyozmani sinchiklab koʻrib chiqibdi), bu kitob Ibn Oqil Abdulvafo Abdullohning «Kitobu-l-funun» nomli asarining hijriy 772 (milodiy 1370) yili koʻchirilgan nusxasidir. Qoʻlyozma 06 Hk 324 koʻrsatkichi ostida saqlanayotir. Kotibi – Gʻoziy bin Ali bin Qutlugʻu-l-Jubatiy. Qoʻlyozma kitob jami 157 varaqli, uygʻur alifbosi va uygʻur yozuvli baytlar uning soʻnggi 154b–157a betlaridadir.

Endi kitobda keltirilgan uygʻur alifbo tizimining ochiqqlamasiga kirishamiz (men kitobdagi uygʻur yozuvli betlarning fotosurati boʻyicha soʻz yuritaman).

Alifbodan oldin shunday jumla bitilgan:

Faṣl: fi xatṭi-l-uyyūrī alāna yuqālu moyūli va ḥurūfuhā ʾḥ ḥarfān mubniya ʾala-l-faṭḥ.

Mazmuni: «Faṣl: Hozirda moʻgʻulcha deb ataladigan uygʻur xatida harflar (soni) 16 ta va fatha asosiga qurilgan».

Shundan soʻng oʻn sakkizta uygʻur harfi keltirilib (oʻn ikkitasi bir qatorda, oltitasi keyingi qatorda) oʻn olti xil arab harflari bilan izohlab chiqilgan. Izohlarida tovushni anglatuvchi harflarning har biriga *alif* qoʻshib ketilgan (muallifning «harflar fatha asosiga qurilgan» deganida ham har bir harfga [a] qoʻshib oʻqilishi koʻzda tutiladi). Bu shakli, uygʻurcha harflarning otini ham bildiradi. Tagidagi ana shu izohlariga qarab uygʻur harflarining oʻqilishi va vazifasini aniqlash mumkin.

Ushbu alifbodagi harflarning ketma-ketligi va otlari shunday:

ا - <a>, وا - <wa>, ا - <qa>, وا - <va>, صا - <sa>, قا - <qa>, يا - <ya>, ككا - <kkā>, م - <ta>, ما - <ma>, نا - <na>, زا - <za>, پا - <pa>, چا - <čā>, را - <ra>, شا - <šā>, لا - <la>.

Ushbu alifboning tartibi Mahmud Koshgʻariy alifbosidan biroz farqli. Unda <sa> bilan <za>, shuningdek, <ta> bilan <ta> oʻrin almashgan. Yana, Mahmud Koshgʻariy δ deb izohlagan ا harfining oti bu alifboda <ta> deb berilgan. Yana, Koshgʻariy alifbosidagi <xa> harfini ham, <qa> ni ham bu alifboda <qa> deb izohlangan. Harqalay, buning bilan ushbu alifboda uygʻur yozuvli matnlarda mazkur tovushlarning farqsiz ifodalangani koʻzda tutilgan koʻrinadi.

Bulardan tashqari, Mahmud Koshg'ariydagi *b* harfi bu alifboda ب bilan ko'rsatilgan. Shularga tayanilsa, uyg'ur alifbosi quyidagi harflardan tuzilgani ta'kidlangan bo'ladi: *a, w, q, v, s, y, k, t // t, m, n, z, p, c, r, s, l*.

Alifbodan so'ng turkiy tildagi sonlarning darajalari (birliklar, o'nliklar, yuz, ming, tuman), undan keyin turkiy baytlar keltirilgan. Ular ham uyg'ur xatida bo'lib, tagma-tag arab xatidagi o'qilishi berilgan. Baytlar «Qutadg'u bilig» va «Hibatu-l-haqoyiq»dan olinganiga qaraganda, ushbu uyg'ur alifbosi Qoraxoniylar davri matnlarini o'qish uchun ochqich sifatida berilgan chog'i.

Buni turkiy sonlar keltirilib, tagidagi o'qilishiga kelganda ular o'g'uzchalashtirilganidan ham bilsa bo'ladi: *tört – dörd, yeti – yedi, toquz – doquz* singari.

Ibn Arabshoh ham o'zining «Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur» otli asarida uyg'ur alifbosini keltiradi (*qarang*: Rustamov 1976, 41). U ham odatdagi tartib bilan 18 ta harfni ko'rsatgan. Lekin uyg'ur harflarining o'qilishini izohlar ekan, «uyg'ur xatida 14 ta harf bor» deb ta'kidlaydi va shu asosda uyg'ur harflarini 14 ta arab harfi bilan transliteratsiya qiladi.

Ibn Arabshoh alifbo harflari soni ozligining sababini shunday izohlaydi: «... Ozligining va shu son bilan cheklanganining sababi bo'g'iz harflarini bir xil shaklda yozadilar. ... Maxrajda [ya'ni, artikulyatsiyada] bir-biriga yaqin bo'lgan *b* va *f* kabi, *z, s* va *s* (ص) kabi, *t, d, t* (ط) kabi harflar ham shunday» (Rustamov 1976, 39).

Bu o'rinda uyg'ur harflarining polifonik tabiati, shuningdek, o'zlashgan so'zlardagi ba'zi tovushlarning (jumladan, ص, ط kabi) turkiy tilda o'ziga yaqin tovushlarga singib ketganligi, ular uchun maxsus harflar yo'qligi ta'kidlangan. Shundan keyin keltirilgan alifboda esa yuqoridagi fikrlar tizimli tarzda ko'rsatib berilgan.

Mahmud Koshg'ariy alifbosidagi *w* bilan *b* ning ikkisi ushbu alifboda arabcha ب orqali izohlangan; *x* va *q* bu yerda ق; *z* bilan *s* bu yerda س; *δ* bilan *t* esa bu yerda د orqali izohlangan. Shunga ko'ra harflar soni 14 tadir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Ibn Arabshoh uyg'ur alifbosida quyidagi tovushlar bir xil ifoda etilganini ta'kidlagan bo'ladi: [*q*] – [*γ*] – [*x*], [*b*] – [*v*] – [*f*], [*z*] – [*s*], [*t*] – [*d*].

Shularga ko'ra, muallif ta'kidlagan uyg'ur alifbosidagi 14 ta harf quyidagilar bo'lib chiqadi: *a, b, q, v, s, y, k, d, m, n, c, r, s, l*.




Ibn Arabshoh uyg'ur xatining tarixi to'g'risida ham yaxshi ma'lumot bergan. Tarixchi yozadi: «Ular [chig'atoyliklar – Q.S.] o'zlarining tilxat, maktub, farmon, xat, kitob, bitim, solnoma, she'r, qissa, hikoyat, hisob, xotira va devonga tegishli hamma ishlarini, chingizona tuzuklarini shu yozuvda yozadilar. Bu yozuvni yaxshi bilgan ularning orasida xor bo'lmaydi, chunki bu (yozuv) ularda rizq ochqichidir» (Rustamov 1976, 42).

Demak, tarixchi Ibn Arabshoh ham, Ibn Oqil Abdulvafo Abdulloh ham uyg'ur xatini juda yaxshi bilganlar. Ular keltirgan alifbolarda ham harflar soni Mahmud Koshg'ariy alifbosidagi singari 18 ta. Biroq birov uyg'ur xatidagi harflar sonini 16 ta, boshqa biri 14 ta deb ko'rsatganining sababi, harflarning polifonik xususiyati va bir qancha tovushlar yozuvda bir xil ifodalanganini nazarda tutganlar.

NATIJALAR

Uyg'urcha harflarning fonetik vazifalari




Endi Mahmud Koshg'ariy keltirgan uyg'ur alifbosidagi ayrim harflarning vazifalari to'g'risida so'z yuritimiz.


Uyg'ur yozuvi oromiy alifbosi negizida yaratilgan. Shunday bo'lsa ham, turklar bu yozuvni o'zlashtirish chog'ida uni o'z tillariga moslashtirib yubordilar. Uning imlo prinsiplari tugal bir shaklda o'ylab chiqilgan edi. Uyg'ur alifbosidagi harflardan uchtasi, o'rni bilan, unililarni ifodalashga xizmat qilgan:  <*a*> harfi [*a*]–[*ä*–*e*] unililarini, [*y*] undoshini ifodalovchi  <*ya*> harfi [*i*] – [*i*–*e*] ni,  <*va*> harfi esa [*u*] – [*ü*] – [*o*] – [*ö*] unililarini anglatadi.

Muhimi shundaki, uyg'ur yozuvda ingichka unililar ham farqlangan: so'z boshida ingichka [*ä*] unlisi bitta *alif* bilan, yo'g'on [*a*] unlisini ifodalash uchun esa *alif* qo'shaloq shaklda

yozilgan. Shuningdek, soʻz boshi va birinchi boʻgʻinda keluvchi [ü] va [ö] unlilari *alif yā* bilan berilgan.

Yozuvning bu xususiyati oromiy alifbosini (harqalay, sugʻdcha alifboni) turkchallashtirish jarayonida vujudga kelgan edi. Chunonchi, sugʻdcha yozuvda choʻziq [a:] tovushi qisqa [a] dan qoʻshaloq *alif* orqali yozilishi bilan farqlangan. Turklar sugʻd xatini oʻzlashtirish chogʻida uning baʼzi prinsiplarini oʻz tillariga moslashtirib olganlar. Sugʻd xatida choʻziqlikni anglatuvchi grafik belgilar uygʻur yozuvida choʻziq-qisqalikni emas, turkiy til uchun muhimroq boʻlgan ingichka va yoʻgʻon unlilar, yaʼni old va orqa qator unlilarini farqlashga xizmat qila boshladi.

Xususan, Turfondan topilgan qadimgi budda, moniy matnlarida soʻz boshida qoʻshaloq  <aa-> harfi orqa qator [a] ni, oddiy  <a-> esa old qator [ā(-e)] unlisini ifodalagan. Keyinchalik orqa qator [a] tovushi uchun ham oddiy  <a-> harfidan foydalaniladigan boʻldi (*qarang*: Sodiqov 2020, 261–262).

Endi undoshlarni anglatuvchi harflarga oʻtamiz: sirada ikkinchi turuvchi  *wa* harfining vazifasi toʻgʻrisida. Bu harf lab-tish [w] hamda lab-lab [v] tovushlarini ifoda etgan. Mahmud Koshgʻariy uning vazifasiga ishora qilib, ostiga arab alifbosidagi و harfini qoʻygan (MK.3a). Buning bilan u [w] tovushini koʻzda tutadi. Bu tovush asarda keltirilgan turkiy misollarda و va و harflari bilan ifodalangan.

Muhimi shundaki, Ibn Oqil Abdulvafo Abdulloh ham oʻzi keltirgan alifboda ushbu harfning ostiga و harfini qoʻyib ketgan. Olimlarning ushbu izohlaridan turkiy soʻzlarda [w] tovushining [v] ga qaraganda ustun ekanligini anglasa boʻladi.

XI–XIV yuzyillarning arab yozuvli turkiy matnlarida [v] bilan [w] boshqa-boshqa harflar bilan berilgan: fonemaning [v] varianti *vāv*, [w] tovushi esa و yoki و harflari bilan ifoda etilgan. Masalan, [w] tovushi “Devonu lugʻoti-t-turk”dagi turkiy matnlarda, “Qutadgʻu bilig”ning arab yozuvli qoʻlyozmalarida و // و, turkiy “Tafsir”da و, “Muqaddamatu-l-adab”ning XIII–XIV yuzyillarga mansub deya chamalanayotgan nusxasida و//و harflari bilan ifoda etilgan (Sodiqov 2020, 272).


Misollar: sew- “sev-” (QBQ.13a, 16), جاف *čaw* – «xabar, dovrugʻ» (QBQ.13a, 7).

Keyingi davr matnlarida bu tovushlar uchun yagona harf xizmat qilgan: ikkovi *vāv* harfi bilan ifodalanadigan boʻldi.

Mahmud Koshgʻariy [w] ni «*bā* (yaʼni, [b] bilan *fā* (yaʼni, [f]) maxrajleri orasidagi» tovush deb taʼkidlaydi (DLT,26). Uning yozishiga qaraganda, [v] yoki [w] bilan soʻzlash dialektal xususiyat boʻlgan. Masalan, “uning suvi bilan tutmochga rang beriladigan bir xil tikanli oʻsimlik”ni baʼzi shevalarda jarangsiz [v] bilan *yava* desalar, boshqalar jarangli [w] bilan *yawa* deganlar (DLT,331).

Shuningdek, u, ayrim hollarda, [v] bilan [w] ning parallel qoʻllanishi mumkinligini ham taʼkidlaydi: *yalawač* – “paygʻambar”. Bu soʻzning *yalavač* shakli ham bor (DLT,340).

Keltirilgan dalillar [w] hamda [v] dialektal xususiyatlarni farqlash bilan birga, har ikkalasi oʻzaro variant sifatida (w~v) qoʻllanganidan ham dalolat beradi.

Endi uygʻur alifbosidagi toʻqqizinchi –  <da> harfining vazifasi toʻgʻrisida. Alifbodagi ushbu harf [d] hamda [t] undoshlarini ifoda etgan. Shuningdek, XI–XIV yuzyilliklarning arab yozuvli turkiy matnlarida tishora ð[ð] undoshi bilan qoʻllangan soʻzlar ham uygʻur yozuvli matnlarda ana shu harf bilan yoziladi.

Mahmud Koshgʻariy oʻz alifbosida toʻqqizinchi harfning ostiga arabcha ð harfini qoʻyib, uning tish ora [ð] tovushini ifoda etganligiga ishora qiladi. Qizigʻi shundaki, alifboda ð[d] ni bildiruvchi harf koʻrsatilmagan. Biroq, taʼkidlash kerak, “Devonu lugʻoti-t-turk”da ð[d] bilan keluvchi soʻzlar ham anchagina.

Har qaysi holda ham alifboda ð[ð] ni anglatishiga ishora etilgan toʻqqizinchi harf oʻsha davrning uygʻur yozuvli matnlarida [d~ð] vazifasini bajarganligi aniq. Mahmud Koshgʻariyning ushbu harf ð[ð] tovushini anglatgan deb izohlagani bejiz emas. U alifboda ð[d] ni emas, faqat ð[ð] ni koʻrsatganligining sababi har ikki tovushni oʻzaro variant sifatida qaraganligidan boʻlsa kerak.

Uyg'ur alifbosidagi <da> harfining vazifasini aniqlashda "Hibatu-l-haqoyiq" uyg'ur yozuvli A nusxasining yozuv xususiyatlari qo'l keladi. E'tiborlisi, uyg'ur yozuvli ushbu qo'lyozmada "shunday o'qilsin" degan ishora ostida arab alifbosidagi harflardan foydalanilgan. Masalan: matnda **كديم** *kedim* so'zidagi <d> harfining ostiga ð belgisini qo'yib, ushbu so'zni tish ora [ð] undoshi bilan *kedim* shaklida o'qishga ishora etilgan (YugA.43,6). Boshqa misollar ham shunday: **قۇدى** *quđi* (*quđi*) – "quyi" (66.1), **عدي** *edgü* (*edgü*) – "yaxshi" (91.2), **ادين** *adın* (*adın*) – "begona" (113.1).

Ba'zi o'rinda uyg'ur yozuvli matndagi <z> harfining ostiga ham ð belgisini qo'yib ketilgan. Shunday ishora bo'lgan ekan, endi bu harfni ham [ð] deb o'qish lozim bo'ladi: **بوزون** *bozun* (*bođun*) – "xalq" (YugA. 102, 2), **قازيۇ** *qazyu* (*qaḍyu*) – "qayg'u, alam" (YugA.103, 2) singari.

«Hibatu-l-haqoyiq»ning V nusxasida [ð] tovushi hatto <t> harfi bilan ham berilgan; bu so'zdagi <t> ni ham [ð] deb o'qisa bo'ladi: **كەت** *ket* (*keđ*) – «juda» (YugB. 39, 5).

"Hibatu-l-haqoyiq"ning arab yozuvli V va S qo'lyozmalarida ð harfi yo'q, o'rinda *dāl* yoki *yā* harflari ishlatilgan. Muhimi shundaki, V va S qo'lyozmalarida [d] yoki [y] bilan ishlatilgan so'zlar asarning arab yozuvli N qo'lyozmasida [ð] bilan keladi; bu tovush matnda ð harfi bilan ifodalangan: **انكو** *edgü* – "ezgu" (YugH. 24b, 6); **ايدي** *edi* – "ega; xudo" (YugH. 15a, 8); **ايڭ** *id-* "yubor-" (YugH. 11a, 3); **قۇدى** *quđi* – "quyi" (YugH. 14a, 5) va b.

Muhim bir dalilga e'tibor qarataylik. "Qutadg'u bilig"ning arab yozuvli Namangan (B) nusxasida [ð] tovushi maxsus harf bilan berilgan: **انكو** *edgü* – "ezgu, yaxshi" (15b, 2), **بوزون** *bođun* – "xalq" (14a, 14), **اوڭ** *öđ* – "vaqt" (20b, 5), **اوڭ** *uđ* – "ho'kiz" (42a, 4). Asarning uyg'ur yozuvli Hirot nusxasida bu so'zlar <d> harfi bilan yozilgan. Shu o'rinda Namangan nusxasining yozuv xususiyatlarini e'tiborda tutadigan bo'lsak, uyg'ur yozuvli matndagi <d> harfi tishora [ð] tovushini ifoda etgani ayon bo'ladi: *edgu* (*edgü*) – "ezgu" (9b, 21), *kedin* (*keđin*) – "keyin" (29a, 19), *quđi* (*quđi*) – "quyi" (8a, 32), *aday* (*adađ*) – "oyoq" (12a, 5), *Uđ* (*Uđ*) – yulduzning oti (8b, 9).

Shuning singari, "Hibatu-l-haqoyiq"ning uyg'ur yozuvli A nusxasida *kedgülik* (ya'ni, "kiygulik") so'zining ostiga ham ð harfi qo'yib ketilgan: *kedgülik* (o'qilishi: *kedgülik*) (YugA. 44. 4). Misollardan anglashiladiki, uyg'ur alifbosidagi <d> harfi [d] va [t] tovushlaridan tashqari, tish ora [ð] tovushini ham ifoda etgan.

Turkiy yozma yodgorliklarda sirg'aluvchi ž [ž] tovushi ham qo'llangan. Mahmud Koshg'ariy buni murakkab artikulyatsiyaga ega bo'lgan ("ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan") tovush deb ta'riflaydi (DLT, 160).

Uyg'ur yozuvli qadimgi Turfon matnlarida sirg'aluvchi ž [ž] tovushi <z> harfining ostiga ikki nuqta qo'yib ifoda etilgan (ž). Masalan, "Syuan-szan kechmishi" asarida: **اژون** *ažun* – "dunyo" (SS.V.71,4), **ئۈژیک** *üžik* – "harf, yozuv" (SS.V. 17, 23).

Sirg'aluvchi ž [ž] tovushi arab xatida ž harfi bilan ifoda etilgan. Masalan, QBQ da: **اژون** *ažun* – "dunyo" (16.7), **اراز** *eräž* – "rohat, farog'at" (285.2).

Mahmud Koshg'ariy o'z asarida quyidagi so'zlarni sirg'aluvchi ž [ž] bilan keltirgan (DLT bo'yicha): **اژون** *ažun* – "dunyo" (43), **اغز** *ayuz* – "og'iz, og'iz suti" (36), **ارژو** *aržu* – "shoqol, chiyabo'ri deyilgan yirtqich bir hayvon" (64), **اوزما** *užma* – "tut daraxti" (65), **تازیک** *täžik* – "tojik; fors" (156); **بژن** *bužin* – bir xil o't, o'simlik (160).

"Qutadg'u bilig"ning arab yozuvli qo'lyozmalarida ž harfi bilan ifoda etilgan ž [ž] tovushi asarning uyg'ur yozuvli Hirot qo'lyozmasida <č> harfi bilan ifoda etilgan. Asarning arab yozuvidagi nusxalarini nazarda tutilsa, bu so'zdagi <č> harfi sirg'aluvchi ž [ž] ni anglatganligi ayon bo'ladi: *ačun* (*ažun*) (QBH. 7a, 17) [asarning arab yozuvli qo'lyozmalarida: **اژون** (QBN. 9b, 10)].

Qadimgi turfon bitiglarida ikki nuqtali <z> bilan yozilgan *ažun* so'zi "Hibat ul-haqoyiq"ning uyg'ur yozuvli nusxalarida <č> harfi bilan **اچون** *ačun* shaklida yozilgan (YugA. 14, 6; 15, 4).

“Hibatu-l-haqoyiq”ning uyg‘ur xatida yozilib, ostida arab harflari bilan izohlab chiqilgan V nusxasida muhim bir yozuv xususiyatini kuzatamiz. Unda uyg‘ur yozuvli matndagi *ačun* so‘zi ostma-ost berilgan arab yozuvli matnda bir o‘rinda *آژون* *ažun* (19, 2; 22, 4), boshqa bir yerda esa *اچون* *ačun* deb izohlangan (23, 4; 47, 7).

Asarning arab yozuvli S nusxasida ham mazkur so‘z bir yerda *ž* bilan *ažun* yozilsa (18,2; 21,4), boshqa bir yerda *č* bilan *ačun* yozilgan (8, 1). Demak, bu so‘z asarda *ažun~ačun* shakllarida qo‘llangan. Shunga binoan, asarning uyg‘ur yozuvli nusxalarida **č** <č> harfi sirg‘aluvchi [ž], o‘rni bilan jarangsiz [č] tovushini ifoda etganligi ayon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Mahmud Koshg‘ariy keltirgan o‘n sakkiz harfli alifbo (MK. 3b) asosida tizimlashtirilsa, harflarning vazifalari quyidagicha ekanligi ayon bo‘ladi:

- ا** <a> harfi – [a], [ä~e]; arabchadan o‘zlashgan so‘zlardagi [h], [ħ] larni;
- و** <w> harfi – [v~w], arabchadan va forschadan o‘zlashgan so‘zlardagi [f] ni;
- خ** <x> harfi – [x], [χ], o‘zlashgan so‘zlardagi [h], [ħ] larni;
- و** <v> harfi – [o], [ō], [u], [ū] larni;
- ز** <z> harfi – [z], [s], [ž] larni;
- ق** <q> harfi – [q], [γ], arabchadan o‘zlashgan so‘zlardagi [h], [ħ] larni;
- ي** <y> harfi – [y]; [i], [i], [~e] larni;
- ك** <k> harfi – [k], [g] larni;
- د** <d> harfi – [d~δ], [t] larni;
- م** <m> harfi – [m] ni;
- ن** <n> harfi – [n] ni;
- س** <s> harfi – [s], [z], Turfon matnlarida ba‘zan [ž] ni;
- ب** harfi – [b], [p] larni;
- چ** <č> harfi – [č], [j], [ž] larni;
- ر** <r> harfi – [r] ni;
- ش** <š> harfi – [š] ni;
- ت** <t> harfi – [t], [d~δ] larni;
- ل** <l> harfi – [l] fonemasini ifoda etadi.

XULOSA

Mahmud Koshg‘ariy keltirgan uyg‘ur alifbosi va yozuv haqidagi ma‘lumotlari yozuv tarixi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, eski turkiy tilning, xususan, Qoraxoniylar davri yozma adabiy tilining fonetik tizimi, harf va tovush munosabatlarini o‘rganishda o‘ta ahamiyatlidir. Koshg‘ariy alifbosi o‘tmishdan qolgan grammatikalar va tarix kitoblaridagi uyg‘ur alifbolarining eng mukammali bo‘lib, olim unga Qoraxoniylar davri tilining bilimdoni, kuchli fonetisti sifatida yondashgan.

Uyg‘ur alifbosi ixcham bir shaklda tuzilgan bo‘lib, undagi harflarning aytarli bari polifonik xususiyatga ega edi. Turkiy xalqlar o‘tmishda foydalangan alifbolarning eng ixchami ham ayni alifbodir. Uning imlo prinsiplari juda o‘ylab ishlab chiqilgan. O‘tmish yozuv amaliyotining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yozuvning qulay yo noqulayligi, tilning fonetik-fonologik tizimiga qay daraja javob berganligi alifbodagi harflarning oz-ko‘pligida emas, balki imlo qoidalarining qanday tuzilganligiga bog‘liq ekan.

Uyg‘ur xati o‘zining ixcham alifbo tizimi, imlo prinsiplarining mukammal ishlangani, paleografik imkoniyatlari bilan yuzyilliklar osha turkiy tilning fonetik xususiyati, kitobat san‘ati talablariga to‘la javob berib, yuzyilliklar osha ishlatilib keldi.